

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2023

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY



SN:2181-0427

nal.namdu.uz





Bosh muharrir: Namangan davlat universiteti rektori S.T.Turg'unov

Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Sh.N.Ataxanov

Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i O.Imomov

TAHRIRHAY'ATI

Fizika-matematika fanlari: akad. S.Zaynobiddinov, akad. A.A'zamov, f-m.f.d., prof. B.Samatov, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, f-m.f.d., dots. B.Abdulazizov, f-m.f.n., dots. A.Xolboyev.

Kimyo fanlari: akad. A.To'rayev, akad. S.Nigmatov, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, t.f.d., v.b. prof G'Doliyev, k.f.n., dots. T.Sattorov, k.f.n., dots. A.Hurmamatov., PhD. D.S.Xolmatov.

Biologiya fanlari: akad. K.Tojibayev, akad. R.Sobirov, b.f.d., prof. A.Batashov, b.f.d., prof. N.Abdurahmonov, b.f.d., dots. F.Kushanov, b.f.d. A.Kuchboyev, b.f.n., dots. D.Dexqonov.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. S.Yunusov.

Qishloq xo'jaligi fanlari: g.f.d., prof. B.Kamalov, q-x.f.n., dots. A.Qazaqov.

Tarix fanlari: akad. A.Asqarov, s.f.d., prof. T.Fayzullayev, s.f.d., prof v.b. N.B. Dexkanov, t.f.d, prof. A.Rasulov.

Iqtisodiyot fanlari: i.f.d., prof. N.Maxmudov, i.f.d., prof.O.Odilov.

Falsafa fanlari: f.f.d., prof. M.Ismoilov, f.f.d. dots. Z.Isaqova, f.f.d., G.G'affarova, f.f.d., dots. T.Ismoilov, PhD. A.Abdullayev.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, PhD. H.Solixo'jayeva, PhD. dots. U.Qo'ziyev, PhD. H. Sarimsoqov, fil.f.d., N.Dosboyeva.

Geografiya fanlari: g.f.d., dots. B.Kamalov, g.f.d., prof. A.Nigmatov, g.f.d., dots. A.Nazarov.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. O' Asqarova, p.f.n., dots. M.Nishonov, p.f.n., dots. A.Sattarov, p.f.n., dots. M.Asqarova, p.f.n., dots. Sh.Xo'jamberdiyeva, p.f.d., dots. S.Abdullayev, PhD. D.Sarimsakova.

Tibbiyot fanlari: b.f.d. G'.Abdullayev, tib.f.n., dots. S.Boltaboyev.

Psixologiya fanlari: p.f.d., prof Z.Nishanova, p.f.n., dots. M.Maxsudova.

Texnik muharrir: N.Yusupov.

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Boburshox ko'chasi, 161-uy

Faks: (0369)227-07-61 **e-mail:** info@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458)ga ega NamDU Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2023-yil 10-iyundagi kengaytirilgan 6-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsa etilgan (Bayonnoma № 6). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobga hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI 2023



O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Adizova Hamida Raximovna
Katta o'qituvchi,
Ekologiya va geografiya kafedrası,
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: O'zbekiston ham sayohat, ham ziyorat uchun eng qulay va imkoniyatlari keng mamlakatlardan biri xisoblanadi. O'zbekistonda turizm sohalarini yanada rivojlantirish uchun eng avvalo, ularning zarur infratuzilmalarini takomillashtirish zarurligi, Ekoturizm va Uzbekistonda uning kelajak istiqbollari, ekoturizmga bog'lik betakror go'zal tabiati, o'ziga xos landshafti, xilma-xil noyob o'simlik va hayvonot dunyosi haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, sayohat, ziyorat, turizm, ekoturizm, tabiat, milliy tabiat bog'i, mahalliy, o'simlik va hayvonot dunyosi, qo'riqxonona, tog' ekotizimi, agroturizm, ma'naviy-madaniy meros.

Abstract: Uzbekistan is considered one of the most convenient and wide-ranging countries for both travel and pilgrimage. In order to further develop tourism sectors in Uzbekistan, first of all, the need to improve their necessary infrastructure, information about ecotourism and its future prospects in Uzbekistan, the unique beautiful nature, unique landscape, diverse and unique flora and fauna related to ecotourism, is highlighted.

Keywords: Uzbekistan, travel, pilgrimage, tourism, ecotourism, nature, national nature park, local, flora and fauna, reserve, mountain ecosystem, agrotourism, spiritual and cultural heritage/

Аннотация: Узбекистан считается одной из самых удобных и обширных стран как для путешествий, так и для паломничества. В целях дальнейшего развития сферы туризма в Узбекистане, в первую очередь, необходимо улучшить их необходимую инфраструктуру, информацию об экотуризме и его дальнейших перспективах в Узбекистане, уникальной красивой природе, уникальном ландшафте, разнообразной и уникальной флоре и фауне, связанной с экотуризмом, выделено.

Ключевые слова: хлорелла, витамин, аминокислота, Стимулятор, клетка, физиология, синтез, белок, каротин, фолио-пантотеновая кислота, кальций, метионин, цистин, триптофан

Kirish

XXI asr iqtisodiyotida turizm eng muhim tarmoqlaridan biri xisoblanadi. Jahon miqyosida mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanad rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki, bugungi kunda turizmni keng ko'lamd taraqqiy ettirishni davrning o'zi taqozo etmoqda.

O'zbekiston ham sayohat, ham ziyorat uchun eng qulay va imkoniyatlari ker mamlakatlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston hududida uzoq taraxiy taraqqiyot davomik butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan ko'plab buyuk allomalar yashab ijod qilga Ularning qoldirgan boy ma'naviy-madaniy merosi xalqaro maydonda katta qiziqish bilan qar kelinmoqda.



O'zbekistonda turizm sohalari yanada rivojlantirish uchun eng avvalo, ularning zarur infratuzilmalarini takomillashtirish zarur. Darhaqiqat, bugungi kunda turizm dunyo mamlakatlarida milliy iqtisodiyotga salmoqli daromad keltiruvchi sohalardan biri bo'lib, 2018 yilda turizm industriyasida 350 mln. dan ortik ishchi xizmat qildi va undan olingan daromad 830 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. Bu raqamlar turizm hamda turistik xizmatlarning tobora rivojlana borishi natijasida so'nggi yillarda yanada ham o'sganligini e'tirof etishimiz mumkin. Turizm industriyasi o'ziga katta sarmoya va resurlarni mujassamlashtirishi bilan bir qatorda davlat va jamiyat uchun zarur bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy funksiyalarni bajaruvchi iqtisodiyot tarmog'i hamdir. Shu bilan bir qatorda uning noan'anaviy turlari-ekoturizm, agroturizm, arxeologik, etnografik, diniy turizm, ekstremal sharoitlar turizmi va boshqalar shakllana boshladi.

E'tiborlisi, shuki mazkur yo'nalishlar mutaxassislar tomonidan tez taraqqiy etayotgan sohalari sifatida e'tirof etilmoqda. Butunjahon turizm tashkiloti turizmning qo'yidagi turlari eng istiqbolli yo'nalish, deya e'tirof etmoqda. Bular: Sarguzasht turizm, dengiz va suv turizmi va ekoturizm. Bu turizm turlari ichida yosh va istiqbolli yo'nalishlardan biri ekoturizm bo'lib, u rivojlanib kelayotganligi hamda serdaromadligi bilan ajralib alohida turadi. Zero, Jahon Turistik Tashkiloti (JTT) tomonidan ekologik turizmning rivojlanish tendensiyalari aniqlangan bo'lib, bu tashkilotning tahminlariga ko'ra 2020-yilga qadar ekologik turizm asosiy strategik yo'nalishlar qatoridan joy oladi. So'ngi yillarda ekoturizmning jahon turizmi industriyasidagi ulushi tobora ko'payib borishi bilan izoxlanadi.

Asosiy qism

Dunyo turizmi oqimi rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlar tomon o'zgarmokda. Rivojlanayotgan mamlakatlarning turizm industriyasi esa asosan ekologik turizm hisobiga amalga oshirilmoqda.

Professor Asqar Nig'matov "Ekoturizm va o'zbekistonda uning kelajak istiqbollari" maqolasida, ekoturizm sayyoxlik bozorining 10- 20 foizni qamrab olgan, o'sish sur'ati esa turizm industriyasining umumiy o'sish sur'atidan bir necha marotaba yuqori e'kanligini alohida ta'kidlagan.

O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida turizm, shu jumladan, ekologik turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega xudud hisoblanadi. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayoni tobora mustahkamlanib bormoqda. Yaqin qisqa davr mobaynida xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, savdo iqtisodiy, madaniy aloqalar rivojlanmoqda. Bu munosabatlar doirasida turizmning ham o'ziga xos o'rni mavjud bo'lib, so'nggi yillarda ushbu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini Rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida ham turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirishga e'tibor berilgan.

O'zbekistonning ekoturizmga bog'liq, betakror go'zal tabiati, o'ziga xos landshafti xilma-xil noyob o'simlik va xayvonot dunyosi, nodir, jahonshumul ahamiyatiga ega bo'lgan arxeologik topilmalari, paleontologik qoldiklar, yer yuzida kam uchraydigan geologik kesimlar yuzlab tabiiy yodgorliklari xorijliklar e'tiborini tortishi tabiiy. Ugom-Chotqol Davlat milli tabiat bog'i, uning tarkibiga kiruvchi Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi, Aydar-Arnas



ko'llar tizimi va Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsiya zonalarida O'zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari doirasida salmoqli ishlar amalga oshirilmogda.

1995 yil yanvarda YUNISEF bilan hamkorlikda "Orolbo'yi ayollari va bolalariga ekologik va hududiy yordam" "ASPERA" loyihasi ishlab chiqilib, bu yuzasidan 1995 yil 31 iyulda Vazirlar Mahkamasining "ASPERA" loyihasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori chiqdi. Loyiha 1995-1998 yillar davomida 3,12 mln AQSH dollari miqdorida amalga oshirildi. "EKOSAN" jamg'armasi tashabusi bilan mamlakatda ekoturizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan. "EKOSAN" Halqaro jamg'armasi va F.Ebert nomli jamg'armasining vakolatxonasi (Germaniya) tomonidan "Ekoturizm va Buyuk Ipak yo'li" mavzusida o'tkazilgan I Xalqaro konferensiyada qabul qilingan tavsiyanomaga binoan "EKOSAN- TUR" Xalqaro markazi tashkil qilingan bo'lib, mazkur markaz tomonidan "2006-2010 yillarda ekologik turizmning servis va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish Dasturi"ni amalga oshirish ishlari olib borildi. Umuman olganda, bugungi kunda "EKOSAN" Xalqaro jamoat fondining asosiy maqsadi inson salomatligiga salbiy omillar ta'sirini

kamaytirish, Orol muammosining ijtimoiy ekologik oqibatlarini yumshatishdan iborat. Tashkilot 2008 yilning o'zida 27 ta gumanitar poyezdlari orqali jami 1.8 mlrd so'mlik gumanitar yordamni respublika hududlariga yuborildi. O'zbekistonning muxofaza etilayotgan xududlari tarkibida 2164 km maydonni egallagan 9 ta davlat qo'riqxonasi, 6061 km maydonni ishg'ol etgan 2 ta milliy bog' va noyob turlarga kiruvchi xayvonlarni ko'paytirish Respublika markazi ("Jayron" ekomarkazi), 12186 km maydonga ega 9 ta davlat buyurtmaxonalari mavjud. Muxofaza etiladigan tabiiy xududlarning umumiy maydoni 20520 km, yoki O'zbekiston xududining 5,2 % ini tashkil etadi.

BMT Butunjahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, ekoturizm 2020 yilgacha turizmni rivojlantirishning beshta asosiy strategik yo'nalishidan biri bo'lib qoladi. So'nggi yillarda global turizm sanoatining umumiy hajmida ekoturizm ulushi 10 foizdan oshdi va uning o'sish sur'ati butun sayyohlik sanoatidagi tegishli ko'rsatkichlarga nisbatan 2-3 baravar yuqoridir[1].

Ekologik turizm (ekoturizm) diqqatga sazovor joylarni o'rganish va ulardan zavqlanish uchun tabiatning inson qadami «tegmagan» (nisbatan kam tekkan) joylarga sayohat qilishni anglatadi. Bundan tashqari, sayyohlar uchun ushbu hududlarning madaniy va etnografik xususiyatlari ham qiziq. Ekoturizm mahalliy aholining faol ijtimoiy-iqtisodiy ishtirokini va mazkur faoliyat turidan daromad olishini ham ta'minlaydi. Ekoturizmning respublikadagi salohiyati O'zbekiston okean va dengizlardan uzoqda joylashgani va tabiiy suv havzalari hajmi kichikligi sababli ekoturizmni rivojlantirish uchun maqbul joylari qo'riqxonalar va ularga yaqin joylashgan hududlar hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda Toshkent, Jizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro va Xorazm viloyatlarida joylashgan 7 ta qo'riqxonalar mavjud bo'lib, umumiy maydoni 188,33 ming gektardan oshadi. Ushbu qo'riqxonalar asosan yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlar va o'simliklarni himoya qilish maqsadida tashkil etilgan.

Ekoturizmning sof iqtisodiy samarasini aniqlash – mushkul masala. Turli mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, ekoturizmdan tushgan daromadning 95 foizi mahalliy hududlar (viloyat va tumanlar) iqtisodi ulushiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, ekoturistlarning kunlik xarajatlari boshqa turdagi sayyohlarnikidan 2-3 barobar ko'p. Misol uchun, dunyoning yetakchi ekoturizm hududlaridan biri bo'lmish Kosta-Rikada bir sayyoh ekoturizm manzilib o'rtacha \$1000 sarflasa, bu ko'rsatkich Fransiyada uchun \$400 ga teng. Boshqa misol: Dominikada



sayyohlar tabiatga ziyonsiz kichik qo'noqlar uchun sayyohlik kemalaridan ko'ra 18 marta ko'p pul to'laydi.

Tabiatni asrab, tijoratni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi Ekoturizmning katta bozorlari Kosta-Rika, Ekvador, Nepal, Keniya, Madagaskar va Shimoliy yarimshar mamlakatlaridir[5]. Aslida «ekologik turizm» tushunchasi zamirida sayohatchilarning boradigan manzilini ayashi hamda mazkur hududlar ommaviy va hukumat himoyasida bo'lishi lozimligi yotadi. Nepalda ekoturizm tabiiy resurslardan foydalanishga yordam berishi, biologik xilma-xillikni saqlashi, o'rmon qoplamini ko'paytirishga xizmat qilishi, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ko'paytirishga, ko'kalamzorlashtirish hamda muqobil energiya manbalaridan foydalanishga ijobiy ta'sir etishi zarurligi shart qilib qo'yilgan. Shuningdek, u yerda tabiiy merosni asrashni takomillashtirish va boshqarishga mahalliy jamiyatning ishtiroki va qo'llab-quvvatlashi orqali erishilmoqda. Xususan, jamiyat ishini tashkil etish, tabiat to'g'risidagi ta'lim va yetakchilarni tayyorlash kabi ommaviy dasturlar mas'ul hokimiyat vakillari ishtirokida yo'lga qo'yilmoqda [6].

Ekoturizmning tabiatga yetkazishi mumkin bo'lgan zarari oldini olishda, avvalo, davlat nazorati hamda jamiyatdagi ekologik bilimlar ahamiyati beqiyos. Davlat nazorati esa zarur normativ-huquqiy bazani takomillashtirishga asoslanadi. Takomillashtirishda xalqaro standartlar hamda xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanilishi zarur. Bu borada O'zbekiston Respublikasining tabiat muhofazasiga oid bir necha xalqaro konvensiya va shartnomani imzolagani ahamiyatlidir. Biroq mamlakatimiz hozirga qadar ekologik turizmga oid xalqaro shartnomalarga qo'shilgani yo'q. Bevosita turizm va u sabab kelib chiqishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar oldini olishda davlat, nodavlat tashkilotlari va sayyohlarning o'rnini belgilovchi BMT Butunjahon turizm tashkilotining "Turizm etikasi to'g'risida"gi hadli konvensiyasi hamda "Ekoturizm to'g'risida"gi Kvebek deklaratsiyasini bunga misol qilib keltirish mumkin. Mazkur xalqaro shartnomalarda tabiat va ekoturizm taraqqiyotini turizmning salbiy ta'siridan himoya qilish, tabiiy va madaniy merosni innovatsion dasturlarning yomon oqibatlaridan muhofaza qilish bilan bog'liq axloq-odob prinsiplari hamda ekoturizm taraqqiyotini belgilashda davlat va nodavlat sektorining roli, shuningdek, soha rivojiga oid boshqa muhim masalalar aks etgan. Shu sababli, O'zbekistonda ekologik va agroturizm rivojiga ega bo'ladigan zarur huquqiy va tashkiliy vazifalarni belgilab olishda ekoturizm bo'yicha Kvebek deklaratsiyasi me'yorlarini qo'llash tavsiya etiladi.

Shu o'rinda mazkur masala yuzasidan bir-ikkita xorij tajribasiga to'xtalib o'tish joiz. Singapurda ekoturizmni rivojlantirishda davlatning o'rnini juda katta. Davlat tabiiy merosni himoyalashdan tashqari, ekoturizmni rivojlantirish maqsadida turli xil fondlar tashkil etadi, qonun hujjatlarini qabul qiladi. Shuningdek, xususiy sektor muassasalari bilan ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha hamkorlik qilmoqda. Gonkong va Shanxay banki kabi xususiy muassasalar esa mamlakatda "Tabiatga g'amxo'rlik qilish" dasturiga homiylik qilmoqda[7]. Biroq Singapurning ayrim hududlarida ekologiya bilan bog'liq muammolar kelib chiqayotgani kuzatilgan [8].

O'zbekistonda davlat va xususiy sektor hamkorligida qo'shma dasturlar ishlab chiqish amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatda turizm, ayniqsa, ekoturizm sohasidagi salohiyat zamonaviy talablarga javob bermaydi. Soha taraqqiyoti uchun zarur sharoitlar yaratishda investitsiyalar jalb etibgina qolmay, ulardan oqilona, tabiatga ziyor yetkazmasdan foydalanishda davlat nazoratini kuchaytirish muhim omil hisoblanadi.



Vazirlar Mahkamasining Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi ishlab chiqqan "Ugom-Chotqol davlat milliy tabiat bog'ining ayrim tabiiy hududlari va ob'ektlaridan foydalanishni tartibga solish to'g'risida"gi qarori loyihasini [9] ekoturizmni rivojlantirishga qaratilgan ijobiy misol sifatida keltirish mumkin. Mazkur hujjatga ko'ra, Urung'och ko'li va unga tutash hududda gidrologik tabiiy yodgorlik tashkil etiladi. Ko'l hududida ekoturizmni rivojlantirish rejalashtirilgan. Asosiy vazifalar qatoriga tabiiy ko'l va unga tutash hududni saqlash va muhofaza qilish, tog' ekotizimining o'simlik va hayvonot dunyosini tiklash, ekologik turizmni tashkil etish, ilmiy va ekologik ta'limni rivojlantirish kiradi. Yodgorlik hududida ko'lga salbiy ta'sir ko'rsatadigan har qanday faoliyat turi taqiqlanadi. Bundan tashqari, u erda ekologik nazorat postini o'rnatish rejalashtirilgan. Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan birga sayyohlik yo'nalishlari belgilab olinadi. Bundan tashqari, hududda sayyohlar uchun maxsus yo'lakchalar, o'rindiqlar, axlat qutilari, axborot va taqiqlash belgilari hamda biohojatxonalarini tashkil qilish kabi chora-tadbirlar ham nazarda tutilgan.

Xulosa

Respublikada faoliyat yurituvchi turoperatorlar, davlat hokimiyati idoralari xodimlari va aholining ekologik bilimlarini oshirish masalaning yana bir muhim jihatidir. Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishni tavsiya etish mumkin. Shuningdek, ekoturlarni Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan hamkorlikda ishlab chiqish lozim. BMTning barcha barqaror rivojlanish maqsadlariga (xususan, ekologik va iqtisodiy barqarorlik sohasidagi) erishish uchun O'zbekiston Respublikasida turizmning muqobil turi sifatida ekoturizmni rivojlantirish muhim albatta. Uni rivojlantirishda ekologiya va turizmning manfaatlari qarama-qarshiligi emas, aksincha, hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Табиатни асраш келажак мулкани асраш. Х.Р.Адизова. Тупроқ унумдорлигини ошириш, сақлаш, муҳофазалаш ва қайта тиклашдаги муаммолар ва илмий ечимла. Бухоро 2019.
2. Параяа yoki qovun daraxtining bioekologiyasi va foydali xususiyatlari. Ф.А.Файзиева, Ф.А.Назарова, Адизва Х.Р. Бухоро давлат университети илмий ахбороти. 2020. №4, Б.
3. The factors that influence begetting desertification process .Anvarova Zebo Mussoyevna, Shodiyeva Nigora South Asian journal of marketing and management research Vol. 10, Issue 11, November 2020
4. Some theoretical issues of social geographical research, Anvarova Zebo Mussoyevna, Shodiyeva Nigora ASIA LIFE SCIENCES 1(1):1-10,2020